



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASINING BUYRUG‘I

2022 yil “ 1 ” noyabr № 78

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 20- maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 276-son qarori ijrosini ta‘minlash hamda Davlat statistika qo‘mitasi tizimida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usullarini amaliyotga joriy etish maqsadida, **BUYURAMAN:**

1. Quyidagilar:

Davlat statistika qo‘mitasi markaziy apparatida davlat xaridlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha xarid komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining statistika boshqarmalarida davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha xarid komissiyasi namunaviy tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

Davlat statistika qo‘mitasida elektron do‘kon vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish sxemasi 3-ilovaga muvofiq;

Davlat statistika qo‘mitasida boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish sxemasi 4-ilovaga muvofiq;

Davlat statistika qo‘mitasida eng yaxshi takliflarni tanlash vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish sxemasi 5-ilovaga muvofiq;

Davlat statistika qo‘mitasida tender vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish sxemasi 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Davlat statistka qo‘mitasi markaziy apparatida davlat xaridlariga oid shikoyatlarni ko‘rib chiquvchi komissiya tarkibi 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Moliya-iqtisodiyot boshqarmasi (J. Shirinov), Bosh auditor O. Bobojonov, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati (Z. Abduxamidov):

- bir hafta muddatda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 20- maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 276-son qarori va mazkur buyruq mazmun-mohiyatini hamda amalga oshirish tartibini Qo‘mita markaziy apparati va hududiy statistika organlariga tanishtirishni;